

---

## FARG`ONA SHAHRIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANIB BORMOQDA



O`zbekistonda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o`tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institustional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me`yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko`maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O`zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Jumladan, korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma`lumotlariga ko`ra, Farg`ona shahrida 2021 yil yanvar-iyun holatiga ro`yxatga olingan kichik tadbirkorlik sub`ektlari soni 6731 tani tashkil qilib, shundan 6522 tasi yoki 96,9 foizi faoliyat ko`rsatmoqda. Joriy yilda 590 ta kichik tadbirkorlik sub`ektlari yangi tashkil etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ro`yxatga olingan kichik tadbirkorlik sub`ektlarining asosiy qismi sanoat 1122 ta (16,7 foizi), savdo 1852 ta (27,5 foizi), qurilish 941 ta (14,0 foizi) hamda qishloq va o`rmon xo`jaligi 120 ta (1,8 foizi) sohalariga to`g`ri keladi.

Farg`ona shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari soni va ular ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Kichik korxonalar O`zbekistan Respublikasining «Korxonalar to`g`risida», «Mulk to`g`risida», «Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to`g`risida»gi kabi qonunlari, Prezident farmon-lari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me`yoriy hujjatlar asosida tashkil etilmoqda.

### [Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-07-27 15:25:00